



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

2024 yil 4-son

Volume 10, Issue 4, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 4-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov I.A.Bakiyeva S.M.Kurbanbayeva	<i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i>	6-19
S.S.Amirdjanova	<i>Приоритетные направления занятости населения и организационно-экономические механизмы его реализации.....</i>	20-33

INSON KAPITALI

A.B.Irmatova A.M.Saidahmadov	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi</i>	34-50
F.O.Odilova	<i>Касб-хунар таълими битирувчиларининг касбий кўникмаларини оширишга таъсир кўрсатувчи омиллар</i>	51-60
T.N.Azimov	<i>Роль высшего образования в обеспечении устойчивого роста человеческого капитала</i>	61-78
T.B.Shomurodov	<i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash</i>	79-86

INSON TARAQQIYOTI

Sh.D.Akishova	<i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i>	87-93
X.X.Yaxshimuratova	<i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i>	94-100
Z.K.Murtozayeva	<i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i>	101-109
Ch.O'.Ro'zimurodova	<i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i>	110-120
T.B.Shomurodov	<i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i>	121-130

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

O.A.Norboyev	<i>Мулкий муносабатлар механизмини такомиллаштириш.....</i>	131-141
---------------------	---	---------

T.B.Shomurodov	<i>Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida.....</i>	142-150
MIGRATSIYA		
Z.T.Jumanova	<i>Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish.....</i>	151-161
INSON RESURLARINI BOSHQARISH		
M.F.Abdumannofova	<i>Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari</i>	162-171
G.R.Kuziyeva	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash</i>	172-180
G.R.Kuziyeva	<i>Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash</i>	181-188
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
S.K.Mansurov	<i>Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'рни va ahamiyati</i>	189-203
S.U.Ismailova	<i>Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике</i>	204-213
Sh.Sh.Atadjanova	<i>Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish</i>	214-221
D.B.Fayziyeva	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish</i>	222-232
Sh.U.Karimova	<i>Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish</i>	233-238
G.R.Kuziyeva	<i>O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsilayalashdagi rolini baholash...</i>	239-247
Sh.S.Sayfutdinov D.T.Alijonova	<i>Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari</i>	248-254
GENDER TENGLIGI		
B.A.Xonturayev	<i>Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indeksleri asosida baholash</i>	255-270

MUNOSIB MEHNAT

S.B.G'oyipnazarov

Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes...

271-281



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TA'LIM INSTITUTLARINI JAMIYATGA TA'SIRINI GENDER INDEKSLARI ASOSIDA BAHOLASH

Bobur Xonturayev Azimovich

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
bo‘lim boshlig‘i, (PhD)

e-mail: idmon.88@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-8814-0053>

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a142

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan halqaro gender indeks reytinglarida O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash masalalari mavzusida tadqiqot o‘tkazilib, bu borada olib borilayotgan ishlar tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida institut tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining “Gender tengsizlik” indeksi, “Gender rivojlanish” indeksi, “Gender ijtimoiy normalar” indekslari, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti Rivojlanish Markazining “Ijtimoiy institutlar va gender” indeksi hamda “Global ayollar, tinchlik va xavfsizlik” indekslarining baholash metodologiyalarini o‘rganib, ta‘lim ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekistonning o‘rnini tahlil qilib chiqdi.

Kalit so'zlar: Gender tengsizlik indeksi (GII), Gender taraqqiyot indeksi (GDI), gender ijtimoiy normalari indeksi (GSNI), ijtimoiy institutlar va gender indeksi (SIGI), global ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi (GWPS), O‘zbekiston gender indeksi reytinglari, gender tengligi O‘zbekistonda, Xalqaro gender indekslari, Gender farqi tahlili, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), gender asosidagi ta‘lim ko‘rsatkichlari, gender siyosatini baholash, O‘zbekistonning gender mavqei oshirish, gender bo‘yicha institutsional asoslar tenglik, O‘zbekistonda genderni yo‘naltirilgan tadqiqotlar.

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ НА ОБЩЕСТВО НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНЫХ ИНДЕКСОВ

Бобур Хонтураев Азимович

Научно-исследовательский институт "Семья и гендер",
заведующий отделом, (PhD)

Аннотация. Автором данной статьи проведено исследование по вопросу повышения позиций Республики Узбекистан в международных рейтингах гендерных индексов и проанализирована работа, которая ведется в настоящее время в этом направлении. В рамках исследования институтом были использованы «Индекс гендерного неравенства», «Индекс гендерного развития», «Индекс гендерных социальных норм» Программы развития ООН, «Индекс социальных институтов и гендера» Центра развития Организации экономического сотрудничества и развития,

«Глобальные женщины, мир и безопасность». Рассмотрены методики оценки индексов, проанализированы образовательные показатели Узбекистана.

Ключевые слова: Индекс гендерного неравенства (GII), Индекс гендерного развития (GDI), Индекс гендерных социальных норм (GSNI), Индекс социальных институтов и гендера (SIGI), Глобальный индекс женщин, мира и безопасности (GWPS), Рейтинги гендерного индекса Узбекистана, Гендерное равенство в Узбекистане, Международные гендерные индексы, Анализ гендерного разрыва, Программа развития Организации Объединенных Наций (ПРООН), Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), Индикаторы гендерного образования, Оценка гендерной политики, Укрепление гендерного положения Узбекистана, Институциональные рамки гендерного равенства, Гендерно-ориентированные исследования в Узбекистане.

ASSESSMENT OF THE IMPACT OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON SOCIETY BASED ON GENDER INDICES

Bobur Khonturaev Azimovich

Research Institute "Family and Gender",
Head of Department, (PhD)

Abstract. The author of this article conducted a study on the issue of enhancing the Republic of Uzbekistan's position in the international gender index ratings and analyzed the work that is currently being conducted in this area. The institute employed the "Gender Inequality Index," "Gender Development" Index, "Gender Social Norms" Index of the United Nations Development Program, "Social Institutions and Gender" Index of the Development Center of the Organization for Economic Co-operation and Development, and "Global Women, Peace and Security" within the research framework. The evaluation methodologies of the indices were examined, and the educational indicators of Uzbekistan were analyzed.

Keywords: Gender Inequality Index (GII), Gender Development Index (GDI), Gender Social Norms Index (GSNI), Social Institutions and Gender Index (SIGI), Global Women, Peace, and Security Index (GWPS), Uzbekistan gender index ratings, Gender equality in Uzbekistan, International gender indices, Gender gap analysis, United Nations Development Program (UNDP), Organization for Economic Co-operation and Development (OECD), Gender-based education indicators, Gender policy evaluation, Enhancing Uzbekistan's gender position, Institutional frameworks for gender equality, Gender-focused research in Uzbekistan.

Kirish

Jamiyat inson ijtimoiylashuvining asosiy tarkibiy qismi va o'ziga xos muhim institut bo'lgan ta'limga tayanadi. Ta'lim tizimi jamiyat va iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o'ynashdan tashqari, ma'naviy va moddiy farovonlikni yuksaltirishning kuchli strategik vositasidir. Shu bois mamlakatimiz ta'lim tizimiga har yili katta miqdorda mablag' ajratib kelmoqda. Ta'lim jarayonini gender farqlari va tenglik asosida tashkil etish jamiyat rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi va o'quvchining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ta'lim ijtimoiylashuvining boshqa agentlari bilan bir qatorda o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda gender tenglik siyosatini amalga oshirish

uchun poydevor qurishi kerak. **Biroq amalda ta’lim muassasalari jamiyatga xos bo’lgan erkaklar va ayollarning noteng maqomida o’z ifodasini topadigan gender asimmetriyasi bilan xarakterlanadi. Jumladan, ta’lim sohasidagi gender segregatsiya ta’limning unchalik obro’li bo’lmagan sohalarini ayollar band qilganligida va maktablarda erkak o’qituvchilarning ulushi yildan-yilga kamayib boroyotganligida o’z ifodasini topadi.** Bugungi kunda dunyo bo’yicha mamlakatlardagi erkaklar va ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar, gender paritet holati bo’yicha ko’plab indeks, reyting va indikatorlar ishlab chiqilgan bo’lib, ularning asosiy maqsadi dunyo bo’yicha gender tenglikka erishish holatini baholashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Gender tengsizlik indeksi (GII) **1995-yilda** Inson taraqqiyoti indeksiga kiritilgan ikki ko’rsatkich – **Gender rivojlanish indeksi (GDI) va Gender imkoniyatlarini kengaytirish o’lchovi (GEM)** da mavjud bo’lgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida **eksperimental chora** sifatida joriy etilgan. Chunki GDI va GEM XXI asr boshida ilmiy doiralarda **metodologik va konseptual jihatdan ko’p marotaba tanqidga** uchragan edi⁶³. Xususan, GDI faqatgina **mamlakatlarning taraqqiyot darajasini** o’lchaydigan, so’ngra taraqqiyotdagi gender farqni aniqlaydigan kompozit indeks, **Inson taraqqiyoti indeksiga juda bog’liq** bo’lsa, GEM faqatgina **ayollarning iqtisodiyot, siyosat va qarorlar qabul qilishda hokimiyat vositalariga ega bo’lish imkoniyatini o’lchashiga** e’tibor qaratilgan⁶⁴. Natijada GDI ko’rsatkichlarida **taraqqiyot darajasi past bo’lgan**, gender tengsizligi mavjud bo’lgan mamlakatlar ham **yuqori ball to’plashi mumkin** bo’lsa, GEM asosan iqtisodiy jihatdan **taraqqiy etgan mamlakatlardagi** holatni o’lchashda qo’l kelgan.

Bugungi kunga kelib Gender tengsizlik indeksi (GII) **Inson taraqqiyot indeksi (HDI)** ning tarkibidagi **kompozit indekslardan biri** hisoblanadi. Gender tengsizlik indeksi (GII) ning metodologik asoslari **Lids universiteti dotsenti Suman Set (Suman Seth)** tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, indeksning hisoblash metodologiyasiga **2011-yilda** o’zgartirish kiritilgan⁶⁵. Natijada indeksdagi barcha indikatorlar **0 dan 1 gacha bo’lgan** ko’rsatkich yordamida ifodalanish, **ularni o’rtacha qiymatga keltirish** imkoniyati paydo bo’lgan.

Gender rivojlanish indeksi (GDI) – umumiy insoniyat taraqqiyotida gender sezgirligini o’lchash uchun BMTning Taraqqiyot Dasturi – **BMTTD (UNDP)** tomonidan yuritiladigan indeks hisoblanadi. Ilk marotaba mazkur

⁶³ Bardhan K., Klasen S. UNDP's gender-related indices: A critical review //World Development. – 1999. – T. 27. – №. 6. – C. 985-1010.

⁶⁴ Beneria L., Permanyer I. The measurement of socio-economic gender inequality revisited //Development and Change. – 2010. – T. 41. – №. 3. – C. 375-399.

⁶⁵ Seth S. Inequality, interactions, and human development //Journal of Human Development and Capabilities. – 2009. – T. 10. – №. 3. – C. 375-396.

indeks **1995-yilda** BMTTD tomonidan tayyorlanadigan **Inson taraqqiyoti hisobotiga** Gender imkoniyatlarini kengaytirish o‘lchovi (Gender Empowerment Measure - GEM) bilan birgalikda kiritilgan. BMTTD tomonidan 1995-yilda gender masalasi bo‘yicha **ikki muhim** qaror qabul qilingan: **birinchidan**, gender bilan bog‘liq taraqqiyot ko‘rsatkichlarini umumiy taraqqiyot holatidan **ajratish**, **ikkinchidan**, gender bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni taraqqiyot va imkoniyatlarga bog‘lagan holda alohida **ikkita indeks joriy etish**. Shu tariqa ikki genderga oid indeks - Gender rivojlanish indeksi (GDI) va Gender imkoniyatlarini kengaytirish o‘lchovi (GEM) paydo bo‘lgan. **S.Anand va A.Sen** tomonidan farovonlikni umumiy baholashda gender bo‘yicha guruhlararo tengsizlikni hisobga oluvchi Gender rivojlanish indeksi (GDI)ning **konseptual asoslari** ishlab chiqilgan⁶⁶ hamda 1995-yildan BMTTD tomonidan amaliyotda ishlatila boshlangan.

Gender rivojlanish indeksi (GDI) **1995-yildan 2010-yilga qadar** Inson taraqqiyoti hisobotida o‘z aksini topib kelgan. Biroq **2010-yilga kelib**, Gender rivojlanish indeksi (GDI) tarkibidagi indikatorlarni hisoblash bilan bog‘liq **qiyinchiliklar** hamda **noaniqliklar** tufayli mazkur indeksni yuritish **to‘xtatilgan**. Bunday muammolar sirasiga ayollar va erkaklar orasidagi **umr davomiyligi** bo‘yicha farqning **fiziologik holatga bog‘liq ekanligi**, ayollar va erkaklar uchun yillik daromadlarning taqsimlanishini hisoblashda ko‘rsatkichlarning doimo **real holatni ko‘rsata olmasligi kabi jihatlarni** ko‘rsatish mumkin⁶⁷. **2014-yildan boshlab** Gender rivojlanish indeksi (GDI) **Inson taraqqiyoti indeksi (HDI)ning** tarkibida **kompozit ko‘rsatkichlardan biri** sifatida qaytadan kiritildi⁶⁸, indeksning tarkibidagi **indikatorlar takomillashtirildi**, xususan, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi indikatorida ayollar va erkaklar uchun fiziologik farqdan kelib chiqib **besh yillik farq** ko‘rsatib o‘tildi. Shu bilan bir qatorda, mazkur indeks tarkibidagi **indikatorlar bilan bog‘liq muammolar** mavjud bo‘lib, ularni yanada **konkretlashtirish, takomillashtirish** hali ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda⁶⁹.

Gender ijtimoiy normalar indeksi (GSNI) mamlakatlarda mavjud **ijtimoiy me‘yorlar, stereotiplarning gender paritetga erishishda qanchalik katta to‘siq** ekanligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Masalan, indeks ko‘rsatkichlari

⁶⁶ Anand S., Sen A. Gender Inequality in Human Development: Theories and Measurement. Occasional Papers 19, Human Development Report Office, New York. – 1995.

⁶⁷ Klasen S. UNDP's gender-related measures: Current problems and proposals for fixing them, Discussion Papers, No. 220, Georg-August-Universität Göttingen, Courant Research Centre - Poverty, Equity and Growth (CRC-PEG), Göttingen, 2017 <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/157265/1/882698184.pdf>

⁶⁸ The 2021/2022 Human Development Report. New York, NY, 2022. P. 269. https://hdr.undp.org/system/files/documents/global-report-document/hdr2021-22pdf_1.pdf

⁶⁹ Schüller D. The uses and misuses of the Gender-Related Development Index and Gender Empowerment Measure: a review of the literature //Journal of Human Development. – 2006. – T. 7. – №. 2. – C. 161-181.; Geske Dijkstra A. Towards a fresh start in measuring gender equality: A contribution to the debate //Journal of Human Development. – 2006. – T. 7. – №. 2. – C. 275-283.; Klasen S. Gender-related indicators of well-being //Human well-being. – Palgrave Macmillan, London, 2007. – C. 167-192.

asosida tahlil qilinganda dunyo miqyosida **deyarli 50 foiz aholi** erkaklarning ayollarga nisbatan yaxshi **siyosiy rahbar** ekanliklarini, **40 foizdan ortig'i** esa erkaklarning **biznesda yaxshi boshqaruvchi** ekanligini ta'kidlashgan⁷⁰. Bu esa ta'lim olishda tenglikka erishgan ayollarning boshqaruv jarayonida ishtirok etolmasligida **ijtimoiy normalarning ta'siri katta ekanligini ko'rsatadi**.

Tadqiqot metodologiyasi

Kamida o'rta ma'lumotga ega ayollar va erkaklar ulushi (SE). Mazkur indikator Gender tengsizlik indeksi (GII) tarkibidagi eng murakkab aniqlanuvchi indikatorlardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi mazkur indikator **bir necha manbalar asosida** o'rganiladi. Mazmunan BMTTDning Gender rivojlanish indeksi (GDI) ning tarkibidagi **25 yosh va undan kattalar uchun o'rtacha o'qish yillari indikatoriga** o'xshab ketadi. Kamida o'rta ma'lumotga ega ayollar va erkaklar ulushi (SE) indikatorini ko'rsatkichlarini shakllantirishda ham **beshta alohida ma'lumotlar** bazasiga tayaniladi. Xususan, **Barro R.J. va Y.V.Li tadqiqot markazi, ICF Macro, UNESCOning Statistika instituti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)** (tashkilotga a'zo bo'lgan **38 mamlakat** uchun) **ning statistika** ma'lumotlari bazalariga va **UNICEFning Ko'p ko'rsatkichli klaster tadqiqotlaridan** mazkur indikatorni shakllantirishda foydalaniladi. Asosiy ma'lumotlar bazasi sifatida Garvard universiteti **Robert Jozef Barro** (Robert Joseph Barro) va uning shogirdi, Koreya universiteti professori **Yong Va Li** (Jong Wha Lee) tomonidan amalga oshiriladigan tadqiqot natijalari⁷¹ e'tirof etiladi.

O'z navbatida savol paydo bo'ladi, yuqoridagi tadqiqot markazlarining ma'lumotlar bazasi qanday ma'lumotlar asosida shakllantiriladi? Aksariyat holatda ma'lumotlar bazasi **aholini ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari, milliy hisob-kitoblar, xalqaro bazalardagi** (UNESCOning Statistika instituti, UNICEFning Ko'p ko'rsatkichli klaster tadqiqotlari va boshqalar) **oldingi ma'lumotlarga** tayanadi.

Mazkur indikatorning aniqlanishida asosiy muammo **birlamchi ma'lumotlarni to'plash** bilan bog'liq. Birlamchi ma'lumotlar yuqoridagi ma'lumotlar bazalari yordamida aniqlanganidan keyin, **25 yosh va undan katta aholining jins kesimidagi ma'lumotlilik darajasi** hisoblab chiqiladi. Bunda 25 yosh va undan katta yoshdagilar uchun **ma'lumotlilik darajasi o'zgarmasligi yoki kamida ma'lumotlilik darajasi kamaymasligi** prinsipiga tayaniladi (Barro-Li metodi bo'yicha). Aksariyat mamlakatlarda (xususan, O'zbekistonda ham) maktab ta'limi boshlang'ich ta'lim bilan bir qatorda **o'rta ma'lumot ham**

⁷⁰ Inglehart, R., C. Haerper, A. Moreno, C. Welzel, K. Kizilova, J. Diez-Medrano, M. Lagos, P. Norris, E. Ponarin and B. Puranen et al. (eds.). 2014. World Values Survey: All Rounds—Country-Pooled Datafile Version. Madrid: JD Systems Institute. <http://www.worldvaluessurvey.org/WVSDocumentationWVL.jsp>.

⁷¹ Barro, Robert and Jong-Wha Lee, 2013, "A New Data Set of Educational Attainment in the World, 1950-2010." Journal of Development Economics, vol 104, pp.184-198.

berganligi, maktab ta’limining majburiy ekanligi tufayli mazkur indikatorning ko’rsatkichlari maksimumga yaqin hisoblanadi.

25 yosh va undan kattalar uchun o’rtacha o’qish yillari indikatorini. Ushbu indikator ko’rsatkichlarini shakllantirishda beshta alohida ma’lumotlar bazasiga tayaniladi. Xususan, **Barro R.J. va Y.V.Li tadqiqot markazi, ICF Macro, UNESCOning Statistika instituti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning statistika ma’lumotlari bazalariga va UNICEFning Ko’p ko’rsatkichli klaster tadqiqotlaridan** mazkur indikatorni shakllantirishda foydalaniladi. Asosiy ma’lumotlar bazasi sifatida Garvard universiteti **Robert Jozef Barro** (Robert Joseph Barro) va uning shogirdi, Koreya universiteti professori **Yong Va Li** (Jong Wha Lee) tomonidan amalga oshiriladigan tadqiqot natijalari⁷² e’tirof etiladi. Mazkur tadqiqotlar **UNESCO, Eurostat** va boshqa ma’lumotlar bazalari asosida **621 ta** turli tadqiqotlari (aholini ro’yxatdan o’tkazish, so’rovnoma) ma’lumotlari yordamida shakllantirilgan. **Barro-Li bazasida** 15 va undan katta yoshdagi aholi uchun **191 mamlakatda kamida 1 marotaba** (jumladan, **O’zbekiston**), **112 mamlakatda esa kamida 3 yoki undan ortiq** marotaba o’tkazilgan kuzatuvlar mavjud. Ma’lumotlarning aksariyati mamlakatlardagi **aholini ro’yxatga olish** natijalaridan olingan. Ma’lumotlarni to’ldirish maqsadida **UNICEFning Ko’p ko’rsatkichli klaster tadqiqotlari** va **BMTning aholishunoslik tadqiqotlariga** murojaat qilingan. Umuman olib qaraganda, mazkur bazada 25 yosh va undan kattalar uchun o’rtacha o’qish yillari indikatorini aniqlashda **146 mamlakatning ma’lumotlari mavjud.**

Barro-Li bazasidagi tahlillar **25 yoshdan 64 yoshgacha bo’lgan** shaxslarning ta’lim darajasi va ta’lim yillari **o’zgarish qoladi** degan tamoyilga asoslanadi. Ma’lumotlar **har 5 yilda** yangilanib turadi. Bugungi kunda baza **1950 yildan 2010 yilgacha** bo’lgan davrdagi **146 mamlakatning, 1870 yildan 2010 yil** oralig’ida esa **89 mamlakatning** ma’lumotlarni o’zida jamlagan. Ma’lumotlar 2018 yil 4 iyunda so’nggi marotaba tahrir qilingan, **jins bo’yicha ajratib chiqilgan.**

25 va undan katta yoshdagilarning ta’lim olganlik davomiyligiga oid ma’lumotlar **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)** tomonidan tashkilotga a’zo bo’lgan **38 mamlakatdagi** ta’lim bo’yicha statistik ma’lumotlarida ham mavjud ⁷³ . Indikatorni shakllantirishda mazkur ma’lumotlardan ham foydalaniladi, bir xil mamlakatlar uchun ma’lumot taqqoslanib, eng maqbuli tanlanadi.

Mazkur indikatorning hisoblanishi ham kutilayotgan maktab yillari indikatorini hisoblash bilan o’xshash. Ya’ni so’rovnoma yoki aholini ro’yxatdan

⁷² Barro, Robert and Jong-Wha Lee, 2013, “A New Data Set of Educational Attainment in the World, 1950-2010.” Journal of Development Economics, vol 104, pp.184-198.

⁷³ <https://stats.oecd.org/Index.aspx?DatasetCode=RGRADSTY#>

o‘tkazishda 25 va undan katta yoshdagilarning ta‘lim olganlik davomiyligi hisoblab chiqiladi, qo‘shiladi va respondentlar soniga bo‘linadi. Odatda bu kabi meta ko‘rsatkichlar uchun yirik tadqiqotlar (**5 000 dan 30 000 nafargacha respondentlardan so‘rovnoma o‘tkazish yoki milliy aholini ro‘yxatdan o‘tkazish**) talab qilinadi.

Kutilayotgan maktab yillari indikatori. Ta‘lim indeksining tarkibidagi mazkur indikatorni hisoblash uchun **CEDLAS** (Taqsimlash, mehnat va ijtimoiy tadqiqotlar markazi) va **Jahon banki, ICF Macro, UNESCOning Statistika institutining** ma‘lumotlari bazalariga va **UNICEFning Ko‘p ko‘rsatkichli klaster tadqiqotlariga** murojaat qilinadi. Ma‘lumotlar bazasining ko‘pligiga asosiy sabab sifatida indikatorni shakllantirish uchun ma‘lumotlarning **bitta bazada to‘liq shakllanmaganligini** ko‘rsatish mumkin. Masalan, ICF Macro Demografik va salomatlikka oid tadqiqotlarida **90 ga yaqin** mamlakatga tegishli ma‘lumotlar jamlangan bo‘lsa, CEDLAS va Jahon banki tadqiqotlari faqat **Lotin Amerikasi va Karib dengizi mintaqasi** mamlakatlaridagi holatni tadqiq etgan.

Kutilayotgan maktab yillari indikatori aholining **kelajakdagi ta‘lim darajasini va undagi gender tengligini ko‘rsatadi**. Kutilayotgan maktab yillari indikatori **maktabga kirish yoshidagi** (agarda davlatda maktabga kirish uchun qat‘iy yosh belgilangan bo‘lsa) o‘g‘il va qiz bolaning kutishi mumkin bo‘lgan **ta‘lim muassasasida** (boshlang‘ich va o‘rta maktab, oliy ta‘lim muassasasi kabi) **taxminiy o‘quv davri** sifatida aniqlanadi.

Past va o‘rta darajada inson taraqqiyoti ko‘rsatkichi mavjud mamlakatlarda ushbu indikatorni hisoblash uchun **6 yoshdan 24 yoshgacha** bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ta‘lim muassasalariga qatnashi haqidagi ma‘lumotlardan foydalaniladi. Mazkur ma‘lumotlar **uy xo‘jaligi so‘rovnomalarini o‘tkazish** orqali shakllantiriladi. Bunda har bir yosh kogortasi uchun (6, 7, 8, 9...24) maktabga qatnaydigan **bolalar ulushi** aniqlanadi va aniqlangan **ulushlar qo‘shiladi**. Ushbu ulushlarning yig‘indisi maktabga kirish yoshidagi (6 yosh) bolaning kutilayotgan maktab yillarini ifodalaydi. Agarda mamlakatda maktabga kirish bo‘yicha aniq yosh belgilanmagan, bolalar 6 yoshdan oldin maktabga borishsa, bunday holatda tegishli yosh bo‘yicha maktabga qatnovchi bolalar ulushi aniqlanadi va umumiy maktab yillariga qo‘shiladi. Olingan ma‘lumotlar jins bo‘yicha qayta ajratiladi va **qiz bolalar hamda o‘g‘il bolalar uchun** kutilayotgan maktab yillari indikatori aniqlanadi.

Yuqori darajada inson taraqqiyoti ko‘rsatkichiga ega mamlakatlarda, xususan, Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlarda odatda bunday hisob-kitoblar **milliy statistika idoralari** tomonidan tayyorlanadi hamda mazkur indikator ko‘rsatkichlari ushbu statistik ma‘lumotlar asosida shakllantiriladi⁷⁴. Ba‘zi mamlakatlarda o‘quv yili kalendar yiliga mos emas. Bunday holatlarda hisob-

⁷⁴ <https://globaldatalab.org/shdi/metadata/esch/>

kitob **o’quv yili tugaydigan vaqtga** qarab belgilanadi. Masalan, **O’zbekistonda** o’quv yili sentyabr dan may oyiga qadar davom etadi. Hisob-kitoblar aynan may oyiga joylashgan yilga nisbatan belgilanadi.

Gender ijtimoiy normalar indeksi (GSNI)ning tarkibiy tuzilishi BMTTD tomonidan ishlab chiqilgan boshqa genderga oid indeksarga nisbatan **murakkabroq**. Chunki jamiyatda mavjud ijtimoiy normalar va munosabatlarni o’lchash, ularning gender tengligiga qay darajada ta’sir qilayotganligini aniqlash, kuzatish va izohlash juda ham qiyin. Biroq **Jahon qadriyatlarini o’lchash assotsiatsiya** tomonidan **1981-yildan** buyon o’tkazilib kelinadigan **Jahon qadriyatlarini tadqiqoti**⁷⁵ (**World Values Survey**) ning **5 to’lqini (2005-2009)** va **6 to’lqini (2010-2014)** ma’lumotlaridan foydalangan holda, ijtimoiy normalar, e’tiqodlarning turli o’lchovlar bo’yicha gender tengligiga qanday ta’sir qilishi aniqlash uchun **gender ijtimoiy normalar indeksini** yaratish mumkin.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Gender tengsizlik indeksining ta’lim ko’rsatkichlari O’zbekistondagi mavjud holat tahlili:

Ushbu indeks mamlakatlardagi **yutuqlarning yo’qotish miqdorini aniqlash** uchun jamlangan ko’rsatkich hisoblanadi. Indeks quyidagi **3 yo’nalish** bo’yicha gender tengsizlik darajasini o’lchashga xizmat qiladi: **reproduktiv salomatlik, huquq va imkoniyatlarni kengaytirish va mehnat bozorida ishtirok etish.**

Tadqiqotimizda **ta’limga** oid bo’lgan ko’rsatkichlarni tahlil qilib chiqamiz. Ta’limga oid bo’lgan ko’rsatkichlar gender tengsizlik indeksining asosiy yo’nalishlaridan biri **huquq va imkoniyatlarni kengaytirish** indikatorida joylashgan bo’lib, **“kamida o’rta ma’lumotga ega ayollar va erkaklar ulushi”** sub indikatorini sifatida qatnashadi. Mazkur indikator Gender tengsizlik indeksi tarkibidagi eng murakkab aniqlanuvchi indikatorlardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi mazkur indikator **bir necha manbalar asosida** o’rganiladi. Kamida o’rta ma’lumotga ega ayollar va erkaklar ulushi indikatorini ko’rsatkichlarini shakllantirishda **beshta alohida ma’lumotlar** bazasiga tayaniladi.

25 yosh va undan katta aholi orasida kamida o’rta ma’lumotga ega bo’lgan aholi ulushi ko’rsatkichida ayollar bo’yicha *Avstriya, Luksemburg, Kanada, Qirg’iziston (barchasida 100 foiz ayollar kamida o’rta ma’lumotli), O’zbekiston (99,9 foiz)*, erkaklar bo’yicha esa *Avstriya, Luksemburg, Kanada, Xorvatiya, Qozog’iston, O’zbekiston (barchasida 100 foiz o’rta ma’lumot)* davlatlari eng yuqori natija qayd etishgan. Eng past ko’rsatkichlar esa ayollarda *Mali (8 foiz), Burundi (7,8 foiz), Chad (7,7 foiz), Gvineya (7,2 foiz) va Afg’oniston (6,4 foiz)*, erkaklarda *Papua – Yangi Gvineya, Mali (ikkisida ham*

⁷⁵ <https://www.worldvaluessurvey.org/wvs.jsp>

15,5 foiz), Niger (15,2 foiz), Afg'oniston (14,9 foiz) va Burundi (13 foiz) mamlakatlarida kuzatilmoqda.



1-rasm. Xalqaro gender indeks reytinglarida mavjud ta'lim ko'rsatkichlari⁷⁶

O'zbekiston Respublikasi **Gender tengsizlik indeksi - 2021/2022** yilgi ko'rsatkichlari bo'yicha **170 mamlakat** ichida umumiy **56 o'rinni** egallagan bo'lib, mamlakatimizning Gender tengsizlik indeksi ko'rsatkichi **0,227** ni tashkil etgan. Indeks ko'rsatkichi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkich **0** qiymatga tenglashtirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi **Vengriya (55 o'rin - 0,221)** va **Malayziya (57 o'rin - 0,228)** mamlakatlari orasida joy olgan.

Ikkinchi indikator bo'lgan **kamida o'rta ma'lumotga ega bo'lgan aholi ulushi** ko'rsatkichida har ikki jinsda O'zbekiston **yuqori natija** qayd etgan. Kamida o'rta ma'lumotli bo'lgan 25 yosh va undan katta yoshdagi **ayollar ulushi 99,9 foizni, erkaklar ulushi esa 100 foizni** qayd etgan. Ta'lim bilan bog'liq mazkur indikatorning ikki ko'rsatkichi bo'yicha umumlashtiradigan bo'lsak, O'zbekistonning natijasi **170 mamlakat ichida 4 o'rin deb belgilangan**. Garchi kamida o'rta ma'lumotli aholining ulushi ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatimizning **ko'rsatkichlari maksimal gender paritetga erishgandek ko'rinsada, oliy ma'lumotlilar ulushi** hisoblanganda ayollarning ulushi erkaklarga nisbatan pastroq natija qayd etadi.

Ta'lim sifati va davomiyligini ta'minlash maqsadida ayollarning o'rta ma'lumotdan keyingi ta'lim bosqichlarida o'qish imkoniyati kengaytirish, buning uchun tizimli targ'ibot va imtiyozlarni amalga oshirish talab qilinadi. Ayollarning

⁷⁶ Muallif ishlanmasi

ma'lumotlilik darajasining yuqori bo'lishi oilaviy ajralishlarning kamayishi, sog'lom genofondning rivojlanishi, onalar o'limining kamayishi, oilalarning reproduktiv rejalashtirishi darajasi ortishiga xizmat qiladi.

Gender rivojlanish indeksining ta'lim ko'rsatkichlari O'zbekistondagi mavjud holat tahlili:

Gender rivojlanish indeksini joriy etishdan **asosiy maqsad** Inson taraqqiyoti indeksiga **gender sezgirligi, gender ta'sirchanligi bo'yicha o'lchovlarni qo'shishdan** iborat. Gender rivojlanish indeksi va Inson taraqqiyoti indeksi o'rtasidagi tavofutni **mamlakatlarda gender tengsizligi mavjudligi tufayli inson taraqqiyotining ortda qolishi** sifatida tasniflash mumkin. Gender rivojlanish indeksini faqatgina mamlakatlarning gender tengsizligini o'lchovchi mezon sifatida tushinish **noto'g'ri**. Chunki Gender rivojlanish indeksi umumiy insoniyat rivojlanishida gender paritetga erishishdagi tafovutlarni o'zida aks ettiradi. Mazkur indeks **umumiy insoniyat taraqqiyotining gender tengsizligiga moslashtirilgan o'lchovi** hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Gender rivojlanish indeksi – 2021/2022 yillardagi **ko'rsatkichi 0,944 ni** tashkil etib, Janubiy Korea, Janubiy Afrika Respublikasi, Myanma davlatlari bilan bir xil ko'rsatkichga ega. O'zbekiston **3 guruhiga ya'ni** ayollar va erkaklar o'rtasidagi Inson taraqqiyoti indeksi yutuqlari bo'yicha **o'rta darajada tenglikka ega** mamlakat sifatida qayd etilgan. Ta'lim indeksining tarkibiga kiruvchi ikki indikatorida ham ayollar ko'rsatkichi erkaklarinikiga nisbatan pastroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, kutilayotgan maktab yillari xotin-qizlar uchun **12,4 yil**, erkaklar uchun esa **12,6 yil** etib belgilangan. 25 yosh va undan kattalar uchun o'rtacha o'qish yillari esa mos ravishda ayollar uchun **11,7 yil**, erkaklar uchun esa **12,1 yil** ko'rsatkichiga ega.

Gender ijtimoiy normalar indeksining ta'lim ko'rsatkichlari O'zbekistondagi mavjud holat tahlili:

Gender ijtimoiy normalar indeksi **siyosat, mehnat va ta'lim kabi sohalarda** ijtimoiy stereotiplarning gender tengligiga qanday to'sqinlik qilishini o'lchaydi hamda **dunyo aholisining 80 foizdan ortig'ini** qamrab olgan **75 mamlakat** ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Indeks shuningdek, dunyo aholisining **59 foizini tashkil etuvchi 31 mamlakat** uchun **gender ijtimoiy normalar indeksi** tendensiyalarini ham taqdim etadi.

Gender ijtimoiy normalar indeksi mamlakatlarda mavjud **ijtimoiy me'yorlar, stereotiplarning gender paritetga erishishda qanchalik katta to'siq** ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi.

Masalan, indeks ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinganda dunyo miqyosida **deyarli 50 foiz aholi** erkaklarning ayollarga nisbatan yaxshi **siyosiy rahbar** ekanliklarini, **40 foizdan ortig'i** esa erkaklarning **biznesda yaxshi boshqaruvchi** ekanligini ta'kidlashgan. Bu esa ta'lim olishda tenglikka erishgan

ayollarning boshqaruv jarayonida ishtirok etolmasligida **ijtimoiy normalarning ta’siri katta ekanligini ko’rsatadi.**

Gender ijtimoiy normalar indeksi (GSNI) – 2020 da O‘zbekiston **Jahon qadriyatlari tadqiqotining** faqat **6-to‘lqini** (2010–2014), da ishtirok etgani sababli, Gender ijtimoiy normalar indeksi (GSNI) gagina kiritilgan. Natijada **O‘zbekistonda 2010-2014 va 7-to‘lqin (2017-2022) yillardagi ijtimoiy normalarning gender tengligiga ta’sirini, jamiyatda gender tengligiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy qarashlarni aniqlash hamda, mazkur qarashlarning o‘zgarib borish dinamikasini ko‘rish imkoniyati mavjud.**

Gender ijtimoiy normalar indeksi (GSNI) bo‘yicha O‘zbekistonning ko‘rsatkichi **6-to‘lqinda – 97.93 foizni** tashkil etgan bo‘lsa, **7-to‘lqinda** bu ko‘rsatkich – **98.03 foizni** tashkil etgan. Ya’ni so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning shuncha foizi tomonidan **kamida bitta ko‘rsatkich bo‘yicha salbiy gender qarashni aks ettiruvchi javoblar** berilgan bo‘lsa, **6-to‘lqin** ma’lumotlariga mos ravishda **2.07 foiz** respondentlar bergan javoblarda **salbiy indikatorlar qayd etilmagan.** Bu 7-to‘lqinda **1.97 foizni tashkil etadi. GSNI2 ko‘rsatkichi,** ya’ni kamida 2 ta indikator salbiy mazmunda bo‘lgan respondentlar ulushi 6-to‘lqinda – **87.73 foizni** tashkil etgan bo‘lsa, 7-to‘lqinda bu 0,44 foizga ko‘tarildi ya’ni 88,17 foizni tashkil qildi. Jins kesimida qaraganimizda 6-to‘lqinda **GSNI ko‘rsatkichi ayollarda – 97.50 foiz, erkaklarda – 98.62 foizni, GSNI2 ko‘rsatkichi esa ayollarda – 84.11 foiz, erkaklarda – 93.46 foizni** tashkil etgan. 2023 yil tahlillariga ko‘ra **GSNI ko‘rsatkichi ayollarda – 97.68 foiz, erkaklarda – 98.57 foizni, GSNI 2 ko‘rsatkichi esa ayollarda – 84.69 foiz, erkaklarda – 93.55 foizni** katta farqni ko‘rsatmaydi.

6-to‘lqinda asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha salbiy indikatorlar qayd etilgan respondentlar ulushiga e’tibor qaratilsa, har bir yo‘nalish bo‘yicha ham salbiy ko‘rsatkichlar foizining **o‘rtachadan yuqori ekanligini** ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonning GSNI asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari va uning jahon bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlardan farqi⁷⁷

Indeksning asosiy yo‘nalishlari	GSNI bo‘yicha O‘zbekiston ko‘rsatkichi (foiz)	Jahon bo‘yicha o‘rtacha GSNI ko‘rsatkichi (foiz)	Farq (foiz)
Ta’lim	48.60	25.63	+22.97

⁷⁷ Muallif ishlanmasi

Ijtimoiy normalar, dunyoqarashning o'zgarishi murakkab jarayon. Ijtimoiy normalar, qarashlar **iqtisodiyotning rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi o'zgarishlar, yangi qonunlar, siyosat yoki dasturlar, ijtimoiy va siyosiy faollik** hamda **rasmiy va norasmiy kanallar** (ta'lim, ommaviy axborot vositalari kabi) orqali yangi g'oyalar va amaliyotlarga ta'sir qilish bilan o'zgarishi mumkin.

Ta'limda gender tengligini ta'minlashda **davlatning asosiy vositalaridan biri** hisoblanadi. Bugungi kunda qiz bolaning oliy ta'lim olishi zarurligi asta-sekinlik bilan ijtimoiy ongda o'z aksini topib bormoqda. Davlat ma'lum mexanizmlar yordamida xotin-qizlarning ta'limini rag'batlantirishni davom etishi ushbu yo'nalishda **ijtimoiy stereotiplarning tugatilishiga xizmat qiladi.**

Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksining ta'lim ko'rsatkichlari O'zbekistondagi mavjud holat tahlili:

Ta'lim ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, zo'ravonlikdan xalos bo'lish va sog'liq uchun juda muhimdir. Maktab yillarining miqdori o'rta maktabni bitirgandan ko'ra aniqroq ko'rsatkich hisoblanadi. **Ushbu indeks** 25 yosh va undan katta yoshdagi ayollarning o'rtacha ta'lim yillari miqdorini aks ettiradi. Uni hisoblashda UNESCO statistika institutining manbasidan foydalaniladi.

O'zbekiston maksimum ko'rsatkichdan, ya'ni 15 yillik ta'lim maksimum qilib belgilangan ko'rsatkichdan 11,6 yil natijasini ko'rsatgan. Indeksda yuqori ball to'plagan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 13,0 dan yuqoriligini kuzatish mumkin. Xususan, Norvegiya (13,0) Daniya (13,1), Buyuk Britaniya (13,2) Germaniya (13,9), Kanada (13,4), qolaversa, top 10 talikka kiruvchi davlatlarda ta'lim yillari 12 yildan kam emasligini ham kuzatish mumkin. Jumladan, Finlyandiya (12,9), Islandiya (12,6), Shveysariya (12,7), Avstriya (12,2). Ushbu ko'rsatkichni yaxshilash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim sifati va qamroviga ahamiyat qaratish lozim.

Ayollar imkoniyatlari indeksining ta'lim ko'rsatkichlari O'zbekistondagi mavjud holat tahlili:

Ayollar imkoniyatlari indeksi (The Female Opportunity Index) dunyoning 100 ta mamlakatida hukumat, korporatsiyalar, STEM va tadbirkorlik sohalarida rahbarlik lavozimlarida ayollar erishgan yutuqlar, shuningdek, ta'lim olish va ota-ona ta'tillari kabi muvaffaqiyatni ta'minlovchi omillarni ko'rib chiquvchi gender tengligi tahlilini olib boradi. **Ayollar imkoniyatlari indeksi** ayollarning ta'lim olish imkoniyatini muhim ko'rsatkich va imkoniyat omili sifatidagi ma'lumotlarni hamda ayollarning ajralish huquqi, ish joyidagi kamsitish qonunlari va boshqa qonunlarni o'rganish bilan to'ldiriladi. Shu bilan birga, mamlakatda ruxsat etilgan tug'ruq ta'tilining muddati ham indeksni aniqlash indikatori sifatida kiritilgan.

BMT prognozlariga ko‘ra, 2050-yilga kelib ish o‘rinlarining 75 foizi STEM sohalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Raqamli jamiyatda ayollarning STEAM sohasidagi ishtirokini oshirish muhim ahamiyatga egadir. Global miqyosda ayollarning 37 foizi internetdan foydalanmaydi. Erkaklarga qaraganda 259 million kamroq ayollar Internetga kirish imkoniga ega. Sun‘iy intellekt sohasidagi ayollarning ulushi 22% foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda STEM sohasidagi ta‘lim yo‘nalishlari va kasblarda juda kam sonli xotin-qizlar mavjud. 2017 yilgi ko‘rsatkichlarga ko‘ra, mamlakatda kasb-hunar bilim yurtlarida va universitetlarda axborot texnologiyalari, arxitektura va qurilish sohasida o‘qiyotgan talabalarning mos ravishda 43% va 17% qismini xotin-qizlar tashkil etadi. **STEM dasturlari bo‘yicha universitet bitiruvchilarining 21 foizigina xotin-qizlar. Ish haqi kam bo‘lgan ijtimoiy sohalarda ayollar keng tarzda faoliyat yuritayotgan bo‘lsalar, erkaklar ko‘proq maoshli texnik sohalarda ishlaydilar**⁷⁸.

YuNESKOning STEM va gender bo‘yicha hisobotiga (SAGA) ko‘ra, bunga asosiy sabablar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- kasb tanlashdagi farqlar;
- hayotiy qadriyatlardagi farq;
- ishonch va o‘z-o‘zini anglash;
- gender stereotiplari;
- gender tarafkashligi.

Turli dasturlar va tadqiqotchilar bo‘yicha oliy ma‘lumotli ayol va erkak bitiruvchilarning ulushiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bakalavr va magistr darajalariga ega ayollar soni erkaklardan ko‘proq bo‘lishi mumkin, lekin fan nomzodlari va tadqiqotchilar orasida erkaklar soni ayollar sonidan ancha ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha turlariga barham berish qo‘mitasi (SEDAW) tomonidan O‘zbekistonda qayd etilgan STEM farqlanishlaridagi muammolar bo‘yicha taqdim qilingan beshinchi davriy hisobotiga ko‘ra, mamlakatda:

- Erkaklar va ayollar o‘rtasida ish haqi hajmi bo‘yicha farqlanish mavjud;
- Mehnat bozorida ayollar va erkaklar o‘rtasida segregatsiya qayd etilmoqda va odatda, ayollar rasmiy va norasmiy iqtisodiyotda kam haq to‘lanadigan ishlarga e‘tiborni qaratishadi.

O‘rta va yuqori daromadli mamlakatlar bilan taqqoslaganda O‘zbekistonda ilmiy-texnik ishlanmalar sohasidagi tadqiqotchilar (har millionta odamga) soni nisbatan past. Har million odamga ilmiy-texnik ishlanmalar sohasidagi tadqiqotlar bo‘yicha O‘zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi (bir million odamga 3 373 ta tadqiqotchi bilan) orqada qolmoqda. Umumiy tadqiqotchilar ichida xotin-qizlar hissasi (xodimlar soniga nisbatan foizda)

⁷⁸ <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/24/stem/>

bo'yicha O'zbekiston ko'rsatkichlari (41%) Rossiya va Tojikistondan oldinda bo'lsa-da, Qozog'iston (53%) va Qirg'izistonga (47%) qaraganda pastroq.

Global innovatsion indeksning “Oliy ma'lumotli ayollarning ish bilan bandligi” indikatori

Global innovatsiyalar indeksiga birinchi marta gender bilan bog'liq ko'rsatkich 2015 yilda kiritildi. Ushbu indikator nomi “**Females employed with advanced degrees**” bo'lib ayollarning, xususan, tadqiqotchi va tadbirkor ayollarning innovatsion roli va hissasini yaxshiroq tushunish uchun kiritilgan. Iqtisodchi va innovatsion olimlar ushbu dolzarb masala bo'yicha dalillar bazasini yaxshilash ustida ishlashadi. Siyosatchilar, o'z navbatida, ayollar tomonidan boshqariladigan innovatsiyalardan maksimal darajada foydalanishga va gender nomutanosibliklarini bartaraf etishga intilshadi.

Ushbu indikator **Ishchilarning umumiy sonida oliy ma'lumotli ayollar ulushi tushuniladi.**

Ish bilan ta'minlanganlar ma'lum bir qisqa muddat ichida quyidagi toifalardan birida bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdagi barcha shaxslarni o'z ichiga oladi: (1) haq to'lanadigan ish; yoki (2) o'z-o'zini ish bilan ta'minlash. Ma'lumotlar ta'lim darajasi bo'yicha ajratilgan bo'lib, bu xalqaro ta'lim standart tasnifiga (ISCED) muvofiq tasniflangan yakunlangan ta'limning eng yuqori darajasini bildiradi.

$$FEAD = \text{Oliy ma'lumotli ayollar soni} / \text{Umumiy ishchilar soni} * 100$$

Agar buni misol bilan tushuntiradigan bo'lsak, biror bir tashkilotda (masalan Oila va xotin-qizlar qo'mitasida) ishlaydigan ishchilar umumiy soni 80 kishi va shundan ilmiy darajaga ega bo'lgan (magistir va PhD) ayollar soni 15 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, unda ushbu indikator $FEAD \frac{15}{80} * 100 = 18,7\%$ ni tashkil qilgan bo'ladi.

Uzbekistan

GII 2021 rank

86

Output rank	Input rank	Income	Region	Population (mn)	GDP, PPP\$ (bn)	GDP per capita, PPP\$	GII 2020 rank
100	75	Lower middle	CSA	33.5	250.2	7,378	93

		Score/ Value	Rank
Institutions		55.8	94
1.1	Political environment	47.6	95
1.1.1	Political and operational stability*	64.3	80
1.1.2	Government effectiveness*	39.2	99
1.2	Regulatory environment	49.9	107
1.2.1	Regulatory quality*	17.5	126
1.2.2	Rule of law*	19.1	123
1.2.3	Cost of redundancy dismissal	17.3	69
1.3	Business environment	69.8	72
1.3.1	Ease of starting a business*	96.2	8
1.3.2	Ease of resolving insolvency*	43.5	90
Human capital and research		30.4	72
2.1	Education	57.3	[42]
2.1.1	Expenditure on education, % GDP	5.3	28
2.1.2	Government funding/pupil, secondary, % GDP/cap	n/a	n/a
2.1.3	School life expectancy, years	12.5	87
2.1.4	PISA scales in reading, maths and science	n/a	n/a
Business sophistication		14.8	[93]
5.1	Knowledge workers	22.8	[93]
5.1.1	Knowledge-intensive employment, %	n/a	n/a
5.1.2	Firms offering formal training, %	16.9	87
5.1.3	GERD performed by business, % GDP	0.1	72
5.1.4	GERD financed by business, %	42.4	38
5.1.5	Females employed w/advanced degrees, %	n/a	n/a
5.2	Innovation linkages	2.6	[130]
5.2.1	University-industry R&D collaboration†	n/a	n/a
5.2.2	State of cluster development and depth†	n/a	n/a
5.2.3	GERD financed by abroad, % GDP	0.0	97
5.2.4	Joint venture/strategic alliance deals/bn PPP\$ GDP	0.0	62
5.2.5	Patent families/bn PPP\$ GDP	0.0	90
5.3	Knowledge absorption	19.0	98
5.3.1	Intellectual property payments, % total trade	0.3	83
5.3.2	High-tech imports, % total trade	8.8	51
5.3.3	ICT services imports, % total trade	0.3	115
5.3.4	FDI net inflows, % GDP	2.8	58
5.3.5	Research talent, % in businesses	12.9	60

O‘zbekiston Global innovatsion indeks bo‘yicha 2021-yilda 132 ta mamlakat orasida 86-o‘rinni egallagan.

Xulosa va takliflar

Ta‘lim institutlarini jamiyatga ta‘sirini gender indeksleri asosida baholash bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

– asosiy e‘tiborni **18–24 yosh oralig‘idagi yigit va qizlarning ta‘limiga** qaratish lozim. **2021–2022 o‘quv yili** boshiga nisbatan mamlakatimizdagi **o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida** jami **404,5 ming** o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lsa, shularning **207,8 ming nafari qizlar, 196,7 ming nafari esa o‘g‘il bolalar. Oliy ta‘lim muassasalarida** esa **808,4 ming nafar** talabalar mavjud bo‘lib, ularning **369 ming nafari ayollar, 439,4 ming nafari esa erkaklardan** iborat. Ya‘ni oliy ta‘limda tahsil olayotgan **erkaklar ayollardan 70,4 ming nafarga ko‘p**. Oliy ta‘limda yosh chegaralanmagan. Lekin aksariyat holatlarda talabalarning yoshi 18–24 yosh oralig‘ini tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar bevosita **gender paritetga erishgunga qadar vaqtinchalik choralar ko‘rishda davom etishi talab etiladi**. Masalan, **qizlar uchun qo‘shimcha kvotalarni yanada ko‘paytirish, oliy ta‘lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish, yotoqxonalar sonini oshirish, qulay shartlar asosida ta‘lim kreditlarini joriy etish, qizlar ta‘limiga yo‘naltirilgan maxsus oliy ta‘lim muassasalarini tashkil etish** shular jumlasidan;

– mamlakatda xotin-qizlarning malakasini oshirish va ilm-fanda ularning ulushini yanada oshirish maqsadida **“Vaucher”** ta‘lim tizimini joriy qilish;

– universitetlarda xotin-qizlarning farzandlari uchun bog‘chalar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bardhan K., Klasen S. UNDP's gender-related indices: A critical review //World Development. – 1999. – T. 27. – №. 6. – C. 985-1010.

2. Beneria L., Permanyer I. The measurement of socio-economic gender inequality revisited //Development and Change. – 2010. – T. 41. – №. 3. – C. 375-399.

3. Seth S. Inequality, interactions, and human development //Journal of Human Development and Capabilities. – 2009. – T. 10. – №. 3. – C. 375-396.

4. Anand S., Sen A. Gender Inequality in Human Development: Theories and Measurement. Occasional Papers 19, Human Development Report Office, New York. – 1995.

5. Klasen S. UNDP's gender-related measures: Current problems and proposals for fixing them, Discussion Papers, No. 220, Georg-August-Universität Göttingen, Courant Research Centre - Poverty, Equity and Growth (CRC-PEG), Göttingen, 2017

<https://www.econstor.eu/bitstream/10419/157265/1/882698184.pdf>

6. The 2021/2022 Human Development Report. New York, NY, 2022. P. 269. https://hdr.undp.org/system/files/documents/global-report-document/hdr2021-22pdf_1.pdf
7. Schüler D. The uses and misuses of the Gender-Related Development Index and Gender Empowerment Measure: a review of the literature //Journal of Human Development. – 2006. – T. 7. – №. 2. – C. 161-181.; Geske Dijkstra A. Towards a fresh start in measuring gender equality: A contribution to the debate //Journal of Human Development. – 2006. – T. 7. – №. 2. – C. 275-283.; Klasen S. Gender-related indicators of well-being //Human well-being. – Palgrave Macmillan, London, 2007. – C. 167-192.
8. Inglehart, R., C. Haerpfer, A. Moreno, C. Welzel, K. Kizilova, J. Diez-Medrano, M. Lagos, P. Norris, E. Ponarin and B. Puranen et al. (eds.). 2014. World Values Survey: All Rounds—Country-Pooled Datafile Version. Madrid: JD Systems Institute. <http://www.worldvaluessurvey.org/WVSDocumentationWVL.jsp>.
9. Barro, Robert and Jong-Wha Lee, 2013, “A New Data Set of Educational Attainment in the World, 1950-2010.” Journal of Development Economics, vol 104, pp.184-198.
10. Barro, Robert and Jong-Wha Lee, 2013, “A New Data Set of Educational Attainment in the World, 1950-2010.” Journal of Development Economics, vol 104, pp.184-198.
11. <https://stats.oecd.org/Index.aspx?DatasetCode=RGRADSTY#>
12. <https://globaldatalab.org/shdi/metadata/esch/>
13. <https://www.worldvaluessurvey.org/wvs.jsp>
14. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/24/stem/>

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz